Ona yurting - oltin beshiging

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan | *№ 14 (66347) 2002 yil 5 aprel, juma* | *Sotuvda erkin narxda*

ASSALOM, SOHIBQIRON!

An'anaga ko'ra, har yili «Respublika yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markazi»da Respublika iqtidorli bolalar anjumani o'tkazilardi. Bu yil esa Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan iqtidorli o'g'il-qizlar o'z anjumanlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Temuriylar tarixi Davlat muzeyiga to'planishdi. Buning ramziy ma'nosi bor albatta. Ma'lumki, 9 aprel kuni sohibqiron Amir Temur tavalludining 666 yilligini keng nishonlaymiz. Shunday faraxbaxsh kunlarda bobomiz ruhini shod etish, shuningdek, iqtidorli o'quvchilar ilmu hunarlari, iste'dodlarini namoyon etib, ramziy ma'noda, ajdodlariga hisobot berish niyatida edilar.

28 mart kuni muzey foyyesida tantanali ravishda boshlangan «Iqtidorli bolalar XI - Resbublika anjumani» to'rt yo'nalishda ish olib bordi. Ishtirokchilar san'atshunos - o'lkashunoslar, adabiyotshunos - o'lkashunoslar, tarixchi - o'lkashunoslar va geograf - o'lkashunoslar sho'balariga bo'linib, o'z bilimlarini namoyish etdilar. Ularning chizgan rasmlari, tayyorlab kelgan stend va mitti maketlari asosida muzeyda ko'rgazma tashkil qilindi va yig'ilganlar uni zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Anjumanga haqiqiy fidoyi o'quvchilar jamlanishdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizga ma'lumki, fan olimpiadalarida g'olib chiqqan o'quvchilar uchun oliy o'quv yurtlariga kirishda imtiyozlar yaratiladi. Bu anjumanda esa unday emas. Shunday bo'lsa-da, o'g'il-qizlar darslardan, uy yumushlaridan ortib, unga juda puxta hozirlik ko'rib kelishgan. Har biri alohida mavzu tanlab, uni har taraflama mukammal yoritishga intilgan. Har birining ishlari maqtovga, o'quvchilar orasida ommalashtirishga loyiq. Shuning uchun ham hakamlar hay'ati a'zolariga g'oliblarni aniqlash ancha mushkul bo'ldi. O'zaro maslahatlashib, har sho'badan 4-5 nafar o'quvchining ijodiy ishlari namunali deb topildi. G'olib o'quvchilar Xalq ta'limi vazirligining Maqtov yorlig'i hamda «Respublika yosh sayohatchilar markazi»ning Faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.

Fursatdan foydalanib, biz ham g'oliblaru ishtirokchilarning ayrimlari bilan yaqindan tanishib oldik. Navbati bilan ularni sizlarga ham tanishtirib borishni rejalashtirdik.

Anjumandan tayyorlangan reportaj va tengdoshlaringiz ijodidan namunalarni gazetamizning 4 va 5 sahifalarida o'qiysiz.

VARRAKLAR QACHON UCHADI?

Qachonki, osmonimiz tinch, musaffo, hayotimiz osuda, turmushimiz farovon, ko'ngillar xotirjam bo'lganda. Demak, O'zbekistonimiz osmoniga varraklar yarashadi. Chunki bizning osmonimiz aynan shunday!

Kuni kecha yurtimiz osmoni turfa rangli varraklar bilan to'lib-toshdi. Respublika O'quvchilar texnik ijodiyot markazi va Respublika yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati hamkorligida poytaxtimizdagi «Bog'i Eram» madaniyat va istirohat oromgohida «Varraklar bayrami» o'tkazildi. Bolalarni milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida o'tkazilgan bayramda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va turli viloyatlardan kelgan 80 nafardan ziyod iqtidorli o'quvchilar o'z varraklari bilan ishtirok etdilar.

samolarga parvoz qilayotgandek bo'ldi go'yo. Varraklarning parvozini diqqat bilan kuzatib turgan Respublika mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkilotidan tashrif buyurgan hakamlar g'oliblarni aniqlab berishdi. Ular Faxriy yorliqlar hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Nafaqat bolajonlarga, balki biz kattalarga ham bir olam zavqu shavq ulashgan «Varraklar bayrami» ko'ngildagidek yakunlandi. Ammo sayilda qatnashmagan sirdaryolik va navoiylik varraksevar tengdoshlaringizning o'rni juda bilindi-da. Kelolmaganliklarining sababini bilolmadigu lekin ular ko'p narsa yo'qotishgani aniq. Bu borada mutasaddi amakilarimizning fikrlari qanday ekan-a?

-Bunday bayramlarda qatnashish bizga juda yoqadi,- deyishdi bolalar ko'zlarini osmondan uzmay.- Birinchidan ko'plab do'stlar orttiramiz, qolaversa, varraklarning yangi-yangi turlarini yasashni o'rganib olamiz...

Ko'kda parvoz qilayotgan laylak, quroq va boshqa usullardagi varraklar orasida O'zbekistonimiz bayrog'i aks ettirilgan varrakning parvozi yuksakroq bo'layotganini ko'rib, ko'nglimiz ham u bilan birga

Prezident asarlarini o'rganamiz

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI:

ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

Muayyan tarixiy davrlarda milliy asosdagi diniy mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan.

Ammo idealizm va materializm o'rtasidagi bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchi dualizm g'oyalari qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda.

Xudo va ilohiy qadriyatlarni mutlaq rad etuvchi ateizm va aynan ana shu haqiqatlarni mutlaqlashtiruvchi teizm o'rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega.

XIX asr boshlarida Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga sig'inishni boshlab bergan uning ofitseri Shoven nomi bilan bog'liq shovinizm g'oyalari paydo bo'ldi. Keyinchalik u muayyan shaxs yoki millatni boshqalardan ustun qo'yadigan, uni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidaga aylandi.

Hozirgi davrda ham vatansizlik g'oyasi — kosmopolitizm, hamma narsani inkor etishga, hech qanday ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi nigilizm kabi ko'p-ko'p mafkuralar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan.

Xullas, inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning ziddi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi. Lekin ular odamzotning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalariga tayanib, oliy maqsadlar sari intilishini aslo to'xtata olmaydi.

(Davomi bor).

SALOM, PUSHKIN!

Yaqinda Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi A. Beruniy nomli 243-maktabda ulug‘ rus shoiri Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodiga bag‘ishlangan kecha bo‘lib o‘tdi.

Kecha A.S.Pushkin hayoti va ijodi haqidagi ma’ruza bilan boshlandi. Uning asosiy ishtirokchilari : 8- “A” sinf o‘quvchilari bo‘lishdi. Bundan tashqari 8- “V”, 8- “YE” va 9- “D” sinflari ham o‘z chiqishlarini namoyish etishdi. O‘quvchilar juda go‘zal sahna ko‘rinishlari, she’rlar, ertaklar hamda rus xalq qo‘shiqlarini ijro etib, yig‘ilganlarni xushnud qilishdi.

8- “A” sinf o‘quvchilari shoirning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanidagi “Qishloqi oyimqiz” qissasidan olingan parchani zo‘r mahorat bilan ijro etishdi. Bu kechani 8- “A” sinf rahbari, rus tili o‘qituvchisi Feruza Zuxurova boshqardi. Ijodiy kechani o‘tkazishdan maqsad yaxshi bilim olishimiz, rus tilini puxta o‘rganishimizdan iboratdir.

Darvoqe, bu kecha faqat rus tilida o‘tkazildi. 8- “A” sinf o‘quvchilari bu bilan cheklanib qolmaydilar. Rus adabiyotiga bag‘ishlangan yana ko‘p shunga o‘xshash tadbirlar o‘tkazish niyatidalar.

Zulfizar SODIQOVA,
Toshkent shahar, S.Rahimov tumanidagi 243-maktabning 8- “A” sinf o‘quvchisi.

MUCHAL TO‘YI ZO‘R BO‘LDI

Maktabimizda tengqurlarimizning muchal to‘yi bo‘lib o‘tdi. Bayram ixchamgina, shinamgina bo‘lib o‘tgan bo‘lsa-da, bizga juda ma’qul bo‘ldi. Unda o‘zimiz tayyorlagan sahna ko‘rinishlarini, she’r va qo‘shiqlarni ijro etdik. Maktab rahbarimiz tabriklari va tilaklari esa bizni rosa ruhlantirib yubordi. Biz ham udumga ko‘ra kelishib olganimizdek, qizil ko‘ylak kiydik. Atrofdagilarga non-tuz ulashdik. Muchal taqvimini puxta o‘rganganimiz bois, har bir yilning xususiyatini birma-bir so‘zladik. Ot yili haqidagi tafsilotlar yig‘ilganlarda qiziqish uyg‘otdi. Go‘yo har birimizning fe’l-atvorimizni o‘rganib turib yozilganga o‘xshaydi. Qat’iylik, cho‘rtkesarlik, boshqara olish qobiliyatiga egalik, samimiyat va ezgulik kabi hislatlar ot muchaliga tegishli. Muchal to‘yi bahona Toshkentga sayohatga bordik. Toshkent Davlat sirkida ajoyib tomoshalarni ko‘rib, maydonda ot bilan suratga ham tushdik. Bu suratim menga esdalik bo‘lib qoladi.



Xurshid HIDOYATOV,
Buxoro viloyati, G‘ijduvon shahridagi 1-maktabning 6-sinf o‘quvchisi.

USTOZIM, SIZGA TA’ZIM

Maktabga keldimu ustozlarning sharafli kasbini dildan tuydim. Ular ko‘magida qo‘limga ilk bora qalam tutib, savodimni chiqardim. Bilimlilar dunyosiga sayohatni boshladim. Yorug‘ olamning duru gavharidan bahramand bo‘lishga oshiqdim. Ustozim Gulnora opa Mansurova ana shunday ustozlardan biri. Ular har bir darsni qiziqarli o‘yin, test va sahna ko‘rinishlari yordamida o‘tadilar. Ko‘rgazmali qurollarning ko‘pligini aytmaysizmi? Saboq berayotgan paytlaridan barcha o‘quvchilar misoli sehrlangandek tinch o‘tiradilar. Bitta ham so‘zni qoldirmay tinglashga, uni uqishga harakat qiladilar.

Mana, yaqinda boshlang‘ich davrini tugatib, yuqori sinflar qatoriga qo‘shilamiz.

Men ustozim Gulnora opani hech ham yodimdan chiqarmayman. Ularning har bir ta’limlari umrbod yodimda qolajak. Doimo shunday fidoyi ustozlarga ta’zim qilaman.

Nigora NABIYEVA,
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 70-umumta’lim maktabining 4-sinf o‘quvchisi.

BANKDA ISHLAMOQCHIMAN

Kichkinaligimda turli kasb egasi bo‘lishni orzu qilardim. Goh o‘zimni doktor, goh esa o‘qituvchi deb his qilsam, gohida hunarmandu olima bo‘lgim kelardi. Hozir qat’iy fikrga keldim. Avvalo iqtisodni puxta egallash kerak ekan. Iqtisodni yaxshi bilgan inson boshqa sohalarni ham egallay oladi. Xalqimizda ham «Avval iqtisod, keyin siyosat» degan maqol bor-ku. Shuning uchun men qimmatbaho qog‘ozlar, aksiyalaru dividentlar haqidagi kitoblarni o‘qib o‘rganyapman. Kerakli fanlarni esa chuqur egallashga ahd qildim. Kelajakda yurtimga foydam tegadigan inson bo‘laman, degan umiddaman.

Odila NURIDDINOVA,
Namangan shahridagi 31-o‘rta maktabning 6-sinf o‘quvchisi.

TERMIZIMGA 2500 YIL

Yigirma besh asrga guvoh bo‘lgan Termizimning yubileyi «Alpomish» stadionida juda katta tantana bilan nishonlandi. Prezidentimiz Islom Karimovning marosimdagi nutqi vohaliklarni yanada ruhlantirib yubordi. Alpomish o‘g‘li Yodgorbekning chiqishi esa juda ta’sirli bo‘ldi. Poytaxtdan kelgan mehmonlaru san’atkorlar chiqishlarini aytmaysizmi? Bayram bahona bir qancha obidalar, ya’ni Sulton Saodat majmui, Hakim at-Termiziy maqbaralari ta’mirlanib, ziyoratgohga aylantirildi. Sharq va zamonaviy me’morchilikning o‘zaro uyg‘unligi timsoli - arxeologik muzey esa o‘zining minglab eksponatlari bilan Surxonning tarixidan so‘zlaydi. Mening voham mening faxrimdir.

Shoira QURBONOVA,
Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumanidagi 19-o‘rta maktab o‘quvchisi.

XO‘JAYLIDA BITTA MAKTAB BOR...

Bizning maktab tumanimizdagi eng avval qurilgan maktablardan bo‘lib, bu yil 63 «yosh»ini nishonlaydi. Maktabimiz bizdan o‘zgacha e’tibor talab qiladi. Chunki eski maktabni chiroyli,toza va ozoda qilib ko‘rsatish oson emas.

Lekin chiroy emas, asosan bilim birinchi darajada tursa, o‘sha maktab hammaning ko‘z o‘ngida o‘ta go‘zal ko‘rinsa kerak. Bizda ham shunday. Bunga misol qilib maktabimizda ish olib borayotgan qoraqalpoq adabiyotidan «Yosh shoirlar», o‘zbek adabiyotidan «Nafosat» to‘garaklarini aytishimiz mumkin. Men ham to‘garak a’zosiman. Men a’zo bo‘lgan «Nafosat» to‘garagining raisasi Shirin opa Qutlimurodovadirlar. Ular o‘z ismi-jismilariga monand shirinso‘zlar. Men ularga yosh avlodga bilim sirlarini o‘rgatishda charchamasliklarini va bizday bo‘lajak adabiyotshunoslarga bundan keyin ham ajoyib ustoz bo‘lib yurishlarini tilayman.

Bibimaryam XO‘JANOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xo‘jayli tumani, 57-maktab o‘quvchisi.

HAR KUNIMIZ NAVRO‘Z BO‘LSIN!

Yurtimizning har go‘shasida bayram shukuhi kezib yuribdi. Chunki Navro‘z tantanalari hali-hanuz davom etyapti.

Bizning Toshkent Pedagogika kollejida ham Navro‘zi olamga bag‘ishlangan ajoyib tadbir bo‘lib o‘tdi. Direktorimiz Ozoda opa Eshonxo‘jayeva boshchiligida O‘zbek Milliy akademik drama teatri binosida 540 talabaga mo‘ljallab bayram dasturxoni yozdik. Bayramimizga keksa otaxonu onaxonlarimizni ham taklif qildik. Karnay-surnay sadolari kechamizga yanada fayz kiritib turdi. Qizlarimiz kuy va qo‘shiqlar ijro etib, yig‘ilganlarni xushnud etishdi, mehmonlarga bayram sovg‘alari, gullar ulashishdi. Teatr jamoasi tomonidan namoyish etilgan «Qalliq o‘yini» nomli spektaklni maroq bilan tomosha qildik. Istardimki, har kunimiz bayram, Navro‘z bo‘lsin!

Samiha MIRZAMUHAMMEDOVA,
Toshkent Pedagogika kolleji talabasi.

SHIFOKOR BO'LSAM, DEYDI

Har yurakning o'z orzusi bo'lganidek, Saodatning ham orzulari bir olam. U kelajakda yaxshi inson bo'lib yetishish uchun harakat qiladi. Sevimli xolajonisi Durdona opaga o'xshagan bolalar shifokori bo'lishni juda-juda xohlaydi. Dunyoda hech bir bola kasal bo'lmasin, deydi.

Tengdoshingiz Saodat Abdusattorova Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 324-maktabning 6- «G» sinfida o'qiydi. Garchi baholari to'rt va besh bo'lsa-da, bundan-da a'lo o'qishga harakat qiladi. Ayniqsa, matematikadan to'rt baho olgan kuni ustozi Go'zal opa Turdialiyevaga «tinchlik» bermaydi. Qayta tayyorlanib, besh olmaguncha ko'ngli tinchimaydi. Matematika fanlar podshosi ekanligini yaxshi bilgani uchun ham barcha mavzularni a'lo darajada o'zlashtirishga intiladi.

Saodat singlisi Sevarani juda yaxshi ko'radi. Shuning uchun ham Saodat hozirdanoq unga sanashni, qo'shishu bo'lishni o'rgatib borayapti-da. Singlisini charchatib qo'ymaslik uchun unga ertaklar, she'rlar, hikoyalar o'qib berishni ham unutmayapti. Hatto singilchasi uchun chiroyli ko'ylakchalar ham tikib bergan.

Bu ishini mehnat o'qituvchisi Nodira opaga ko'rsatganida, ular «qiz bolaning qo'lidan bichish-tikish kelsa yaxshi-da», deya Saodatni maqtab ham qo'ygan.

Ayni kunlarda Saodat ingliz tili bilan jiddiy shug'ullanayapti. Ingliz tili o'qituvchisi Shahnoza opa Sobirova ham Saodatga til o'rgatishdan sira zerikmaydi. Uning qiziqishlarini inobatga olib, keragidan ortiq bilim berishga harakat qiladi.

Saodat barcha ustozlarini mehr bilan tilga oladi.

Sinfdoshlarining ahilligi, do'st o'rtoqligidan faxrlanadi. Ayniqsa, Laylo, Dilorom, Sevara, Xolidalar bilan birga bo'lsa, hecham zerikmasligi, kelajakdagi orzulari haqida suhbatlar qilishini so'zlaydi.

Ha, dugonalar bilan orzular, istaklaru umidlar haqida suhbat qurish juda maroqli. Zero, orzu-umid insonni hamisha olg'a yetaklaydi. Biroq, orzuning ijobati, irodayu jasoratga bog'liq ekanligini ham Saodat juda yaxshi biladi.

Feruza SOYIBJON qizi.

"CHARCHAMAYDIGAN" BOLA

Ta'til vaqtida kimdir buvisinikida, yana kimdir boshqa joylarda dam olishi mumkin. Men hozir siz bilan tanishtirmoqchi bo'lgan bola esa dam olish nimaligini bilmaydi, hatto charchamas ekan ham. Negaligini u bilan bo'lgan suhbatdan bilib olasiz.

-Avvalo ismingiz, qaysi maktabda o'qishingizni aytsangiz.

-Mening ismim Ilhomjon. Parkent tumanidagi 12-maktabning 3-sinfida o'qiyman.

-Ilhomjon, maktabda necha baholarga o'qiysiz?

-Har xil, ba'zida «3» baho ham olaman. «3» baho olganimda rosa alam qiladi, darsga tayyorlanmay kelganim uchun pushaymon yeyman.

- «3» bahoni ko'p olasizmi?

-Yo'q, bunday past baho olishimga avvalo oyim qo'ymaydilar, dadam ham urushadilar. Ular menga har doim yaxshi o'qishimni, kelajakda ularning ishonchlarini oqlashim kerakligini aytishadi.

-Demak, past baho olishingizga o'zingiz aybdor ekansiz-da?

-Ha, ba'zida erinchoqligim tutib qoladi. Aksiga olib, o'sha kuni o'qituvchimiz mendan so'rab qoladilar.

-Do'stlaringiz bormi?

-Ha, mahallamizdagi bolalarning hammasi mening do'stlarim. Darsdan bo'sh vaqtlarimizda ular bilan futbol o'ynaymiz.

-Futbol o'ynashni yoqtirarkansiz-da?

-Ha, yozgi ta'til paytlarida qishlog'imizdagi 4 ta mahalla bilan bellashdik. Va albatta biz ularni yengib, sovg'alar oldik.

-Bunday o'yinlar faqat yozda bo'ladimi?

-Ha, chunki boshqa paytlarda vaqt bo'lmaydi. Qishlog'imizdagi deyarli barcha odamlarning uzumzori bor. Kuzda uzum uzish kerak, kech kuzda esa uni qirqib yopish kerak... Xullas, boshqa paytlarda hammaning o'ziga yarasha ishi bo'ladi.

- Hozir ta'tildasiz. Bo'sh vaqtlaringizda nimalar bilan shug'ullanayapsiz?

-Tomorqa ishlarida oyim bilan dadamga yordamlashayapman. Hovlimizda ozgina uzum bor. Hozir o'shani ochib, shoxlarini ishkomlarga bog'laymiz. Keyin daladagi uzumlarimizni ochamiz. Hozir ishimizning «qaynagan» payti.

-Maktabda to'garaklarga qatnashasizmi?

-Yo'q, chunki men uyda bo'lmasam, oyim bilan dadam dastyorsiz qoladi.

-Ilhomjon, mana hozir ishlaringiz ko'p ekan, tomorqangiz ham kattagina, oyingizga, dadangizga yordamlashib, charchab qolmaysizmi?

-Yo'q, umuman charchamayman. Hatto ishlarimni tezroq bitirib bo'lib, o'rtoqlarim bilan to'p tepishga ham ulguraman.

-Kitoblar ham o'qib turasizmi?

-Ha, kitob o'qish jonu dilim. Oyim bilan qishloq kutubxonasiga a'zo bo'lganmiz. U yerda turli qiziqarli kitoblar ko'p. Buning ustiga ko'p kitob o'qigan bola ko'p narsani biladi.

-Uyingizda qanday jonivorlarni boqasiz?

-Avval uyimizda qo'ylarimiz bo'lardi. Lekin ularga qaraydigan odam bo'lmagach, sotib yubordik. Hozir 4 ta quyonim bor.

-Kelajakdagi orzularingiz bilan o'rtoqlashsangiz...

-Katta bo'lganimda yaxshi futbolchi bo'lishni xohlayman. Orzuimga yetishsam, «Paxtakor»da o'ynab, O'zbekistonimiz sharafini yana ham ko'tarmoqchiman.

-Orzuingizga tilakdoshmiz, Ilhomjon. Kelajakda sizdan ajoyib futbol ustasi chiqib, «Paxtakor»ning mavqei yana baland bo'lsa ajabmas.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.

ORZULARDAN YARALGAN OLAM

Muzey kutubxonasida ish olib borayotgan «Adabiyotshunoslar va o'lkashunoslar» sho'basi ishlarini kuzatdik. Respublikamizning turli viloyatlari, olis burchaklaridan kelgan o'quvchilar o'z tumani, qishlog'ida yashab, ijod qilib kelayotgan shoiru yozuvchilar hayoti, ijodiga oid referatlar, suratli lavhalar, stendlaru video tasmalar olib kelishdi. Bir so'z bilan aytganda, yangi bir ijodkorni «kashf etishdi». O'z qahramonlari haqida og'zaki ma'lumot berib, she'riy mashqlaridan o'qishdi. Shu tariqa hay'at a'zolariga bilimdonu zukkoliklari, so'zamolliklarini namoyish etishdi. Ishtirokchilar orasidan qashqadaryolik Nurxon Bozorova

diqqatimizni tortdi. ***Qarshi shahridagi 32 - maktabning 7 - «A» sinfida tahsil olayotgan Nurxon*** shu yilning fevral oyida bo'lib o'tgan viloyat iqtidorli bolalar ko'rik-tanlovida faxrli o'rinlarni egallab, ushbu anjumanga yo'llanma oldi. U maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga she'riy mashqlari «Nafosat» gazetasida ham chop etilar, hatto, «Orzulardan yaralgan olam» nomli she'riy to'plamini chiqarishga ham ulguribdi. Qashqadaryo viloyat televideniyasining «Umid g'unchalari» telejurnalida o'z she'rlari bilan qatnashib, radiojurnalda boshlovchilik ham qilarkan.

Dunyoni hayratga
solgan o'zingsan,
Voyaga yetkazgan ne-ne dahoni.
Senga tosh otishdi,
chidading lekin,
Bu azob men uchun og'ir Turonim.
Bosqinlar, zulmlar,
dahshatli qiynoq,
Barchasin eslasam, zirqirar jonim.
Sabru qanoatni sen qilib bayroq,
Sitamga dosh berding
ko'hna Turonim.
G'oliblik yalovi qo'lingda bu kun,
Shodlikka yo'g'rildi har dam,
har onim.
Meni kutmoqdadir porloq istiqbol,
Ta'zimim qabul et, aziz Turonim!

Ona Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch tuyg'ularga yo'g'rilgan beg'ubor va samimiy, ravon satrlarni ilk bor o'qigan odam uning muallifi 14 yoshli qizaloq ekanligini xayoliga ham keltirmaydi.

Momolar sabog'i
biz uchun maktab,
Unda bor jasorat, mehr va hayo.
Ne ma'ni ularning hayotin maqtab,
Munosib bo'lmasak o'zimiz ammo,-

deya tarixi munavvar, muzaffar taqdirli ajdodlariga munosib bo'lishga ahd qiladi Nurxon.

Xullas, uning son-sanoqsiz



voqea-hodisalar ichra tanlagan mavzularining barchasida aniq, umidlarga yo'g'rilgan ishonch bor, yosh dilning jo'shqin hayajonu hissiyotlari chiroyli.

Nurxon Bozorovaning yosh bo'lishiga qaramay viloyat yozuvchilar uyushmasi a'zosi ekanligi ham bizni quvontirdi. Uyushma raisi, taniqli yozuvchimiz Ismoil To'xtamishev hamda shoira Muxtarama Ulug'ovalarning yosh iste'dod egasi ijodi haqidagi iliq fikrlarini o'qib, boshimiz osmonga yetdi.

Bu hali hammasi emas, Nurxon anjumanga hikoyalari, chizgan suratlarini ham olib kelibdi.

Xalq Ta'limi Vazirligi Respublika yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar Markazi tomonidan tashkil qilingan «Iqtidorli bolalar XI - Respublika anjumani»da ishtirok etib, san'at va adabiyot yo'nalishi bo'yicha faxrli o'rinni olgan Nurxon Bozorovani biz ham samimiy qutlaymiz. Adabiyot gulshaniga yana bir umidli, yosh shoira kirib kelayotganiga umid qilib, undan beg'ubor his-tuyg'ular bilan yo'g'rilgan she'riy satrlar kutib qolamiz.



TARIXNI BILMAY TURIB...

«Tarixchi - o'lkashunoslar» sho'basi bo'yicha ishlari namunali deb topilgan o'quvchilar orasida Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 24 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi Dilnoza Xo'janazarova ham bor. Dilnozaning «Amir Temur avlodlarimiz» mavzusida tayyorlab kelgan ijodiy ishi tengdoshlari tomonidan zo'r qiziqish bilan tinglandi va hay'at a'zolarining yuqori baholariga munosib deb topildi. Dilnoza ijodiy ishining «Sohibqiron nazari tushgan yurt», «Bobur tavof aylagan diyor» bandlarida o'zi tug'ilib o'sgan makoni - Xo'jaobodi haqida shunday yozadi: «Andijonning Xo'jaobodiga aziz - avliyolar, yirik sarkarda, davlat arboblarining nigohi tushgan. Amir Temur hukmronlik qilgan dastlabki yillarda O'rta Osiyoning qadimiy - madaniy markazlaridan biri bo'lgan Farg'ona vodiysiga bir necha bor kelgani, jumladan tumanimiz xududida ham bo'lgani haqida rivoyatlar bor. O'shga tumanimizdagi bir qishloq orqali o'tib ketayotib, karnay-surnay sadolarini eshitadi. Yo'l boshlovchidan nega karnay chalinayotganini so'raydi. Shunda u: «Shohim, bu qishloq ahli azaldan o'z qishlog'iga odil va adolatli hukmdor tashrif buyursa, ularni shunday katta tantana bilan qarshi oladilar» deb javob beribdi...»

- Tariximizni, o'tmishimizni bilmay turib, kelajakni yarata olmaymiz,- deydi Dilnoza ishonch bilan...

Nafaqat tarix, balki matematika, kimyo, adabiyot fanlarini ham sevib o'rganayotgan, san'atga ham ixlosi baland, tirishqoq, izlanuvchan, mehnatkash qiz Dilnozadan ustozlari hamda ota-onasining umidi katta. Tariximiz bilimdoni Dilnozaning kelgusida xalqimizga munosib, oqila farzand bo'lib kamol topishiga biz ham ishonamiz.

SERQIRRA IJODKOR EKAN

- Men adabiy o'lkashunoslik yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdim,- deydi ***Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi Oybek nomli 12- maktabning 6- «A» sinf o'quvchisi Habibjon Oxunov.*** - Unda shahrimizdagi shoir, jurnalist hamda musavvir Hasan Abduvohidov ijodini yoritishga harakat qildim. Bunda ustozim Gulsara opa Karimovaning xizmatlari katta bo'ldi.

Avvalo Hasan Abduvohidov bilan maktabimizda uchrashuv uyushtirdik. Uchrashuv davomida shoirning hajvchilikda ham qalam tebratganini bilib oldim. Uning hajviyalarini taniqli san'atkorlar- Ergash Karimov va Roza Karimovalar, Hojiboy Tojiboyev kabilar zo'r mahorat bilan xalqqa yetkazishar ekan.

Hasan Abduvohidovning qator she'rlari kuyga solinib, sirdaryolik xonandalar tomonidan qo'shiq qilingan ekan.

To'g'ri, men bu kabi anjumanda birinchi bor ishtirok etishim. Shuning uchun ham yutuqlar bilan birga kamchiliklarimni ham sezdim. Nasib bo'lsa, kelgusi anjumanlarga yanada puxtaroq tayyorlanishga harakat qilaman.

BIZGA TO'YLAR YARASHAR

- «San'atshunoslik» sho'basida ishtirok etganimdan juda xursandman,- deydi ***Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 23- maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi Odinaxon Mirzayeva.***- Unda men «Yor-yorlar taralsin olamga» deb nomlangan laparim orqali o'zbek urf-odatlarimizni ko'rsatdim.

To'g'rida, o'zbegimga, o'zbegim xonadoniga to'ylar, bayramlar yarashadi. Siz suratda ko'rib turgan milliy libosda yor- yoru allani aytganimda ustozim Yo.Nishonboyevaning zavqlanib tinglaganlarini kuzatdim.

Barcha ustozlarim bizlarga juda mehribon. Jumladan, L.Hakimov, D.Ubaydullayeva, E.Rahimovalardan minnatdorman. Ularning cheksiz mehrlari oldida hamisha bosh egaman. Ushbu she'rimni barcha ustozlarga bag'ishlayman.

Ona kabi mehribon,
Qalbi quyosh ustozim.
Madhingizni doimo,
Kuylaydi yangroq sozim.

O'quvchilar taqdirin,
Tinmay doim o'ylaysiz.
Bir kun darsga kelmasak,
Onamizday yo'qlaysiz.

-Kecha nega kelmading?
Deya yona ketasiz.
Yana bir zum ham o'tmay,
Gunohlardan o'tasiz.

Mustaqil yurt bolalari - iqtidorlidir

MUZEYDAGI KO'RGAZMA

- Bilasizki, Samarqand azal- azaldan san'atkorlar, me'morlaru donishmandlar shahri bo'lgan. Undagi qadimiy obidalar, tarixiy yodgorliklar haligacha insonni o'ziga maftun etib kelmoqda. Go'zal binolarni kuzatar ekanman, uning qo'li gul usta va me'morlari ko'z oldimga keladi. Bu kabi insonlar haqida biz o'quvchilar ham ko'proq bilimga ega bo'lishimiz kerakligini his qilaman.

Shuning uchun ham anjumanda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, usta me'mor Abdug'affor Haqqulov hayoti va faoliyatini yoritishga intildim,- deydi ***Samarqand tumanidagi 32- maktabning 9- «V» sinf o'quvchisi Barnoxon Haqqulova.*** - Men tarixga, adabiyotga juda qiziqaman. Temuriylar tarixi Davlat muzeyini tomosha qilganimda bu fanlarga bo'lgan qiziqishim yanada ortdi. Temur bobom haqida ko'p ma'lumotlarni bilib oldim.

Anjuman ishtirokchilarining eng sara ishlaridan muzeyda ko'rgazma tashkil qilindi. Ko'rgazma shu yilning 10 apreliga qadar davom etadigan bo'ldi. Istardimki, barcha tengdoshlarim bobomizning tug'ilgan kuni bahonasida Temuriylar tarixi Davlat muzeyiga borishsa.

ILMIY ISH QILMOQCHIMAN

- Maktabimizda «Nafosat» deb nomlangan to'garak faoliyat ko'rsatadi. Unga adabiyot, tarix, geografiya fanlariga qiziquvchi o'quvchilar a'zo bo'lishgan,- deydi ***Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi 27- maktabning 8- sinf o'quvchisi Shoiraxon O'rozmetova.*** - To'garagimizga ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Shirin opa Tohirova rahbarlik qiladilar.

Opamizning o'zlari ham ijodga, tarixga qiziqadilar. Shuning uchun ham to'garagimizning har bir mashg'uloti bir-biridan qiziqarli, mazmunli o'tadi.

Ustozimiz yordamlari bois ayrim o'quvchilarning she'riy kitobchalari ham nashrdan chiqqan. Shular qatori mening ham «Hilol», «G'uncha» deb nomlangan kitobchalarim o'quvchilar qo'liga tegdi.

Ko'plab tanlovlarda, jumladan «Ijodkor yoshlar», «Tomchi suvda hayot jilvasi», «Bolalar folklor ijodiyoti» kabi tadbirlarda ishtirok etish menga ham nasib etdi.

Mana bugungi iqtidorli bolalar Respublika anjumanida ham san'atshunoslik yo'nalishi bo'yicha qatnashdim. Unda Xorazm lazgisining yaratilish tarixini ham nazariy, ham amaliy ochib berishga harakat qildim.

Maqsadim - g'oliblik emas. Yanada izlanish, o'rganishdir. Ushbu anjuman orqali ko'plab do'stlar orttirdim. Ular bilan fikrlashib, tortishib, bilimimni kengaytirdim.

Ayni kunlarda qishlog'imizdagi keksa ziyoli insonlar haqida ma'lumot to'playapman hamda xalq og'zaki ijodi namunalarini yig'ib borayapman. Kelgusida to'plagan ishlarim yuzasidan ilmiy ish qilish niyatidaman.

Qo'shsahifani
Feruza JALILOVA va Feruza ODILOVA tayyorlashdi.

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

__*Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi*__

Buyuk kishilar olmos yanglig'
noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

JANUBIY QUTB KASHFIYOTCHISI

Mashhur norveg sayyohi va geograf olimi, qutb tadqiqotchisi bo'lgan bu shijoatli odam haqida bolaligimda bir kitob o'qigandim. Maktabda geografiya fanini sevib o'qiganim uchun Norvegiya mamlakati qayerdaligini bilardim, bu yerdan chiqqan yana bir taniqli tadqiqotchi Fritof Napsen to'g'risida ham xabardor edim. Buyuk ingliz sayyohi David Livingston o'tgan asrda Afrika savannalariyu changalzorlarida dom-daraksiz g'oyib bo'lganidan so'ng, amerikalik fidoyi jurnalist Genri Stenli uning izidan axtarib ketgani xususida ming bir hayajon bilan o'qib chiqqanman. Bilim olib ulg'aygach, chex sayyohlari Zigmund va Ganzelka misoli dunyo kezish, yuqoridagi ulug' zotlar yashagan joylarni ziyorat qilish, ular yurgan yo'llardan o'tish mening bolalikdagi ardoqli-totli orzuim edi. Biroq, yoshim ulg'aygani, ko'proq o'qiganim sayin ularning hayoti bilan yaqinroq tanisha boshladim va achchiq qismatlaridan boxabar bo'ldim. Masalan, birgina Rual Amundsenni olsak, uning hayot yo'lini bosib o'tish har kimga ham nasib etavermas ekan. Keling, aqalli uning o'zi haqidagina bilganlarimni hikoya qilib beray. Shoyad shu bilan orzu qilish oson, lekin unga yetishish qiyinligi haqida yoshlarimizda ozgina bo'lsa ham tasavvur uyg'onsa.

MUZLIKLARGA MEHR QO'YGANDI

...Odam o'ziga shunday taqdirni o'z ixtiyori bilan tanlashi bag'oyat ajabtovur hodisa va bunga aql bovar qilishi mushkul. Chek-chegarasiz zulmat tunning sarhad bilmas sukunati, kayut-kompaniyadagi sustgina harorat esa bepoyon dasht izg'irinidagi shamning ojiz yog'dusi yanglig' behol titraydi. Barmoq bilan sanarli odamlar davrasidagi ko'p oylik hayot me'daga tekkan, zotan, ular bilan gaplashish mumkin bo'lgan jamiki gap-so'zlar aytib bo'lingan allaqachon, binobarin, endi bu odamlarning o'tirish-turishiyu xatti-harakatlari, imo-ishorasiyu hatto o'ychan qolishigacha asab torlarini taranglashtirib yuboradi. Jismoniy tana - uzluksiz toliqish, qovurg'alar orasidan hushtak chalib o'tuvchi qora izg'irindan bezigan badan hamda chek-chekkasi ko'rinmas iztiroblardan bu ozurda ruhiyat uchun shuncha azob-uqubatlar na darkor o'zi? Nechorakim, taxir ta'mli bu ko'rgulikka muayyan bir muddatgacha, saodatli bir damlargacha emas, balki xotimasi o'ta mavhumiy bo'lgan bir umrga o'z-o'zingni beayov mahkum etgansan, birodar!

Xo'sh, nima uchun axir? Shon-shuhratni debmi? Mol-davlat uchunmi? Oslo shahri yaqinidagi uyida o'tadigan sanoqli kunlarida u go'yo bir darvesh, zohid bo'lib yashardi, o'ziga o'zi taom tayyorlar, o'zi uyni yig'ishtirardi. Holvaytardek shon-shuhrat, pulu mablag' deganlari uchun ham, qirchillama ayozu shuurni muzlatuvchi zulumot yillari uchun to'lanadigan sariq chaqa ham unga bor-yo'g'i bir narsaga - yana o'sha ayozu yana o'sha zulumotga qaytmog'i uchun kerak edi, xolos. Xo'sh, nima uchun endi?

Rual Amundsen bu savolga shunday javob bergan:

-Sayyoramizda shu paytgacha bizga noma'lum bo'lib kelayotgan voqea-hodisalar ko'pchilikning ongiga og'ir bir tosh bo'lib botadi. Bu mavhumiyat inson hali yengib ulgurmagan bir mohiyatdir, zaif-notavon ekanligimizning allaqanday bir doimiy isbot-dalili, tabiat ustidan hukmronlik qilish uchun urinishdagi qandaydir bir noxush da'vatdir.

U muzni, mo'ynani, itlar karvonidagi shovqin-suronni sevardi. Hamrohlarining tor doirasidan aslo-aslo o'kinmasdi. O'zining oq turmasi kengliklarida baxtiyor va erkin edi. Gullab-yashnagan bog'laru so'lim daraxtzorlar bizni o'ziga qanchalik tortsa, bu norveg odamini muzqoyalaru muztog'lar o'ziga shunchalik maftun etardi. Oppoq qor uning qismati edi.

Rual buni juda erta idrok qilgan. Bolalik chog'idayoq qutb tadqiqotchisi bo'lishga ahd etgan.

-Yana kim biladi deysiz,-deb yozgandi Amundsen,- balki o'sha kezlari aksari hollarda azob-uqubatlarga yetaklovchi yoshlik xomxayoli qonimda jo'sh urgandir? Ehtimol, shu bois ham o'zimni «qutb tadqiqotlari bo'yicha fidoyi odam» deb bilgandirman.

Biroq aynan o'sha kezlari ham uning tomirlarida ko'pirib toshgan yoshlik orzu-g'ayratlari haddan ziyod pishiq-puxtalik va jamiki xatti-harakatlarni oldindan aniq hisob-kitob qilish bilan uzviy bog'lanib ketgan edi. Qisqasi, yosh Amundsen to'rvaxaltasini bo'g'irsoqqa to'ldirib, duch kelgan karvon bilan dunyo kezishga oshiqqan bo'z bola emasdi.

Rual haqiqiy amaliyotchi bo'lgan. U qalin daftar tutib, qutb sayohatlariga tegishli jamiki ma'lumotlarni - qancha muddatga va qanday kiyim-kechak va poyabzal, asbob-uskuna, oziq-ovqat kerakligini hafsala bilan yozib borardi. Chiniqish kerakmi - qish kechalari onasidan yashirib derazani ochib uxlardi. Tanani chayir qilish zarurmi - kuniga 50 chaqirimlab chang'i uchardi. Bo'lajak ekspeditsiyalarda dengizchi ham bo'lish lozimmi - baliqchilik shxunalariga matros bo'lib yollanardi. Akasi bilan birga Norvegiyaning yaydoq Xardanger yassitog'ligi bo'ylab o'tgan eng dastlabki ekspeditsiyasida ikkovlari yo'ldan adashib sovuq qotib o'lishlariga sal qolganini aytmaganda Amundsen qariyb hech qachon og'ir vaziyatlarga tushmagan. Bir umr dunyo kezar ekan, sayyoh uchun go'yo odatiydek tuyulgan sarguzashtlardan hamisha o'zini olib qochardi. Ongli ravishda shunga intilardi.



Tasodiflar esa bo'lgan, albatta. Barcha ekspeditsiyalarda ko'plab marta yuz beruvchi bu tasodiflar bilan taqdir uni nogahoniy sinovlardan o'tkazgan bo'lar, ammo sayyohning sabru toqati, metin irodasi va boy tajribasi jamiki sinovlarga cho'ng bir bardosh bilan javob qilardi. Antarktidada «Belgika» kemasida muz asirligida qolib yohud «Yoa» va «Mod» kemalarida majburan qishlab, ekspeditsiya muddati bir yil hamda undan ko'proqqa cho'zilib ketgan paytlar ham, qutbga tayyorada xatarli parvoz qilingandagi majburiy qo'nishlar ham fojiali tugamadi. Bularning bari iroda, oldindan ko'ra bilish va ehtiyotkorlikning qo'shimcha sinovlarigina edi, xolos. Rual Amundsenning olami esa avval boshdanoq aynan ana shu uchta asosga tayangan.

IRODA - BIRLAMCHIDIR

-Iroda kuchi - iste'dodli tadqiqotchining eng birlamchi va eng muhim sifatidir,-deb uqtiradi Amundsen.-U o'z irodasini idora qila olgan taqdirdagina tabiat uning yo'liga qo'yuvchi mashaqqatlarni yengib o'tishdan umid qilishi mumkin. Oldindan ko'ra bilish bilan ehtiyotkorlik birdek zarur! Oldindan ko'ra bilish qiyinchiliklarni o'z vaqtida payqash uchun, ehtiyotkorlik esa ularni qarshi olishga har tomonlama pishiq-puxta tayyorgarlik qilib qo'yish uchun darkor.

Sayyohning kundaligida yana shunday yozuv bor: «G'alaba hamma narsasi tartibli odamgagina yor bo'ladi va bu omad deb ataladi».

Ekspeditsiyalarning umumiy strategiyasini ishlab chiqar ekan, Amundsen safarning har bir kunini xayolan har bir tafsilotigacha obdon pishitib olardi. Masalan, u yo'lning qaysi chaqirimida mo'yna poyabzallarni almashtirish, qaysi soatda qaysi otni qurbon qilib, boshqalarini boqish kerakligini aniq bilardi. Binobarin, mashhur qutb tadqiqotchisi V.YU.Vize unga quyidagicha baho bergani bejiz emas: «Amundsenning Janubiy qutbga safarini musiqaviy asarning shunday bir mohirona ijrosi bilan qiyoslash mumkinki, undagi har bir ohang avvaldan ma'lum va atroflicha o'ylab ko'rilgan».

Sayyoramizning qutb sohalarini tadqiq qilishda hech kim Rual Amundsenchalik katta xizmat ko'rsatmagan. U Atlantika okeanidan Tinch okeanga Amerika qit'asining shimoliy sohillari bo'ylab birinchi bo'lib o'tdi, uning salaflari bu ishga naqd to'rt asrdan beri urinishgan, lekin muvaffaqiyat qozona olishmagan edi. Shundan keyin Amundsen Atlantikadan Tinch okeanga Sibir sohillari bo'ylab yo'l ochdi, ya'ni Shimoliy muz okeani suvlarida ilk bora dunyo bo'ylab qutb sayohatini amalga oshirdi.

Rual Amundsen Janubiy qutbga birinchi bo'lib yetib borgan odam edi. U «qutb tadqiqotlarining kelajagi aviatsiya bilan uzviy bog'liq», deb bashorat qildi va birinchi bo'lib dirijablda yevropadan Amerikaga Shimoliy qutb orqali uchib o'tdi. Mazkur ekspeditsiyalardan istalgan biri uning nomini shuhratga burkash uchun yetarli edi. Binobarin, sayyoh «O'zimni nimagaki tayyorlagan bo'lsam, o'shani amalga oshirish nasib etdi. Bu shuhrat esa bitta odam uchun yetarlidir», deb aytganida haq edi, albatta.

METIN MATONAT

Amundsenning yoshligi shiddat bilan o'tdi, shu uchunmi u hamisha katta yoshliday ko'rinardi. Masalan, bor-yo'g'i 33 ga kirganda unga 70 yosh berishgan va hokazo. O'ta jiddiy, to'g'riso'z, halol odam edi. Balki avvaldan zuvalasi pishiq bo'lgan, yoki muzliklar uni shunday «sayqallagan». Amundsen o'lguday o'jar, qaysar odam bo'lgan. «Mod» kemasidagi safar paytida uning yelkasi sindi. Siniq shu qadar murakkab ediki, oqibatda suyaklar qing'ir-qiyshiq bo'lib o'sdi. Biroq sarkash sayyoh og'riqli o'ng qo'lini chap qo'lida ko'targancha uqalagani-uqalagan edi. Bir necha oydan keyin AQShning Sietl shahridagi hakimlar uning qo'lini rentgen suratiga tushirib, u ishlashi mumkin emas, degan xulosaga kelishdi. Qo'l esa binoyiday ishlardi. Shundan keyin sayyoh gaz bilan zaharlanib qoldi, mutaxassislar u sayru sayohatlarini butkul unutishini talab qilib, faqat ko'rpa-to'shak qilib yotishgina hayotingizni saqlab qoladi, deb uqtirishdi. Amundsen esa shu gapdan so'ng tayyorada qutbga bordi va dirijablda Amerikaga uchib o'tdi.

Muzliklar Rual Amundsenni odamlarni qadrlashga o'rgatdi. U adolatsizlikdan va eng oddiy aldov-yolg'onlardan ko'p azob chekar, mayda-chuyda izzat-nafs o'yinlarini yoqtirmasdi. Norvegiya dirijablidagi parvozidan so'ng «Hayot yo'lim» nomli kitob yozib, ko'plab sahifalarni kema komandiri italiyalik Nobilega bag'ishladi. Nobile yakka hokim bo'lishga intilar, duch kelgan joyda misqollab bo'lsa ham shon-shuhrat orttirishga urinardi. Amundsen kitobida o'zini tutishga uringan, ammo italiyalikni yoqtirmasligi sezilib turibdi baribir. Bu asar 1927 yili nashrdan chiqdi. Ya'ni bir yildan keyin esa Nobile Italiya dirijablida halokatga uchrab, suzuvchi muzlikka qo'nishga majbur bo'ldi. Natijada «qizil chodir»ni qutqarishdek mashhur tadbir boshlandi.

Amundsen kafeda o'tirgan paytida ofitsiant telefonga chaqirdi. Norvegiya Harbiy ministri qo'ng'iroq qilayotgan ekan.

-Sizning yordamingiz nihoyatda tez va nihoyatda kerakli bo'ladi,-dedi u.

-Men roziman,-dedi Amundsen oddiygina qilib.

1928 yil 18 iyul kuni Rual Amundsen «Latam» rusumli fransuz tayyorasida Nobileni izlab uchib ketdi.

Shundan so'ng sayyohdan hech qanday xabar bo'lmadi. Lekin undan ko'pam xavotirlanishgani yo'q: Amundsenga biror nima bo'lishi mumkinligini hech kim xayoliga keltirolmasdi-da. Aslida ham bunga uzoq vaqtlargacha hech kim ishonolmadi.

Shoir Konstantin Simonovning Rual Amundsenga bag'ishlangan «Qariya» nomli bir she'ri bor va u shunday tugallanadi:

Kuzak palla, dengiz muzlamay turib,
Ovga chiqqan baliqchi kema
Tayyoraning kuygan qanotin topdi-
Mangu shuhrat bir parchasini.

KITOBXONLAR BAYRAMI

Navro'zigul rango-rang
Rangin bahorimga salom.
O'ng ko'zimning gavhari,
Guli bahorimga salom.

Respublika bolalar kutubxonasida bo'lib o'tgan Navro'z ayyomiga bag'ishlangan «Assalom Navro'zi olam» deb nomlangan tadbir aynan ushbu she'r bilan boshlandi.

Hozir ko'pgina o'qituvchilardan o'quvchilarning badiiy kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlari kamaydi degan gaplarini eshitamiz. Lekin, kutubxonada buning aksini guvohi bo'ldik. Bu bayram tadbirini kutubxona direktori F.T. Buxarova tashkillashtirgan bo'lsalar, bayram tadbiriga Muhabbat opa Hayitboyeva, Noila opa Ro'zmetova, Dinara opa Abdulhayrixonovalar bosh-qosh bo'lishibdi.

Ushbu tadbirda 64-maktabning 3-, 4-sinf o'quvchilari ajoyib laparlar, she'r va qo'shiqlari bilan ishtirok etdilar.

H. Hakimzoda nomli musiqa bilim yurti o'quvchilaridan Nafisa Hojiyeva, O'ktam Jumaniyozovlar maqom yo'nalishidagi qo'shiqlari bilan yig'ilganlarni xushnud etdi. Bundan tashqari kechada ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha direktor muovini D.Jamolova boshchiligida Uspenskiy nomidagi musiqa maktabidan tashrif buyurgan bolajonlar «Sumalak», «Xayr maktabim» kabi ajoyib qo'shiqlarni jonli ovozda ijro etib, tomoshabinlarga bayram tabrigi sifatida taqdim etdilar.

-Kutubxonamiz yaxshi joyda joylashgan. Doimo o'quvchilar bilan gavjum. 64-, 50-, 17-, 18-maktablarning o'quvchilari faol a'zolarimizdirlar. Bu yerda yosh kitobsevarlar ishtirokida tez-tez turli tadbirlar bo'lib turadi. Zarina Atajonova , Malika Shukurova, Yunusova Dilzoda, Dilrabo Yusupova, Muhammad Qudratullayev singari 64-maktabning 3-,4-sinf o'quvchilari har bir ishda faoldirlar.

Bugungi tadbirni o'tkazishimizdan maqsad, qadimgi urf-odatlarimizni bolalar ongiga singdirishdir,-dedilar biz bilan suhbatda kutubxonaning kichik yoshdagi bolalarga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i Muhabbat opa Hayitboyeva.

Tadbir ajoyib tarzda yakunlandi. Buni yig'ilganlarning yuzidagi tabassumdan ham bilish qiyin emasdi.

Fursatdan foydalanib, barcha bolajonlarni kutubxona xodimlari nomidan ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha bo'lim boshlig'i Noila opa Ro'zmatova tabrikladilar:

-Men yurtimizdagi barcha bolajonlarni Navro'z bilan chin dildan tabriklayman. Ular bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlarini istab, kutubxonamizga taklif qilaman. Zero, bilimli va zukko bolajonlar bizning kelajagimiz poydevoridir.

Agarda sizda ham shu kabi qiziqarli tadbirlarda ishtirok etish niyati bo'lsa, kutubxonaga bir kelib keting...

Ma'suda ABDUQODIR qizi.

Kutubxona - nurxona

"QO'ZIQORIN YOMG'IR"

Go'zal, jannatmakon Vatanimizning tog'u adirlarida momaqaldiroqlar gumbirlaydigan ilk bahor oylarida qo'ziqorinlar terish mavsumi boshlanadi. Sahrolarda mart oyidan chiqa boshlasa, tog'lik joylarda keyinroq, aprel va may oylarida chiqadi. Lekin ularni hammasini ham yeb bo'lmasligini bilasizmi?

Keling, yaxshisi iste'molga yaroqli bo'lgan zamburug'lar oilasi bilan sizlarni tanishtiray:

1. Qo'ziqorin - (ruschasiga «Smorchok», «Siroyejka») xalqimizning qo'rqmay iste'mol qiladigani shu. Rangi to'q yo och qo'ng'ir. Ichi oq, oyog'i yo'g'on. Dumba yog'ida qo'y buyragi bilan qovurib yesangiz, uning mazasini bilasiz. Tuzlamalar tayyorlashga yaramaydi.

2. Qo'ziquyruq - Markaziy Osiyo sahro-yu tog'u adirlarida uchraydigan eng shirin va noyob zamburug'. Bunga teng keladigani yo'q. Ko'rinishi xuddi qo'zining dumbachasiga o'xshaydi - shuning uchun ham unga «qo'ziquyruq» nomi berilgan. Og'irligi 50 grammdan to 1,5 kilogacha bo'ladi. Eng shirinlari tog' yonbag'irlarida uchraydi. Oyog'i yo'g'on va kalta. Badanining bir chetrog'ida o'rnashgan oyog'i barg bandini eslatadi.

3. «Ko'k oyoq» - (ruschasiga «siniy nojka») rangi och qo'ng'ir, sersuv, oyoqlariga xuddi ko'k siyoh sepilganday. Agar qo'ziquyruqni oliy nav desak, buni birinchi nav deyish mumkin.



4. «Oltin tanga» - kattaligi eski mis besh tiyinni eslatadi. Agar erinmay terib, undan qaynatma sho'rva pishirsangiz, shirinligiga qoyil qolasiz. Oyog'i, usti ingichka, parda belbog'i yo'q. Zaharli «devona telpaklarda» uzun oyog'ini o'rtasida parda belbog'i bo'ladi.

5. «Kunda zamburug'» - (ruschasiga «Opyonka») - chirigan kundalar yoki yiqilgan daraxtlar xodasiga yopishib, to'p-to'p bo'lib chiqadigan zamburug'lar. Ta'mi uncha yaxshi emas. Tuzlamalarga ishlatsa bo'ladi. Pishirish ham ancha qiyin - uzoqroq qaynatib, keyin qovursa bo'ladi.

6. «Shampinoni» - bu fransuzlarning eng sevimli qo'ziqorini. O'zbekchasiga men unga «Oqqo'ziqorin» nomini berdim. Yerdan katta oq yo kulrang sallasini ko'tarib chiqadi, oyog'i kalta va yo'g'on. Ichki tomoni oldin oppoq va yo'g'on bo'lib, keyin pushti rangga, undan keyin havoning ta'siridan qorayadi. Bu juda lazzatli qo'ziqorin, uni saryog'da qovurib yesangiz bo'ladi. Unga darrov qurt tushadi va ichini to'ldirib «go'shtli somsa»ga aylanadi, bunaqangi somsalarni toshbaqalar yaxshi ko'rishar ekan.

7. «Osilib o'sar zamburug'» - (ruschasiga «Veshenka»). Bu daraxtlarda osilib o'sadi. Uni uyda daraxt chiqindilarida o'stirib, ko'paytirsa ham bo'ladi. Bunaqangi «osilib o'sar»lar magazinlarda sotuvda ko'p. Shampinonlarni ham sun'iy ravishda o'stirishadi: misol uchun Polsha Respublikasi yiliga qariyb 40 ming tonnasini chet davlatlarga sotadi.

Zaharli va xavfli turlari esa quyidagilar:

Bu guruhga kiruvchilarning oyoqlari uzun va ingichka bo'ladi. Ulardan birining nomi «Devona telpak» - sallasi xuddi darveshlarning telpagiga o'xshaydi. Yana bir belgisi - bular zaharli bo'lganligi uchun ularga qurtlar ham tushmaydi.

Yana bitta ajoyib zamburug' bor, uning nomi ruschasiga «Dimok», ya'ni quriganda ichi qurib, changga aylanadi va oyog'ingiz bilan bossangiz tutun chiqqanday bo'ladi. Shu «tutuni»ni yod o'rnida ishlatsa bo'ladi. Ko'rinishi oppoq, dumaloq, kattaligi yong'oqday yo tuxumday, oyog'i yo'q. Bu zamburug'ni «yoshlik» davrida iste'mol qilsa bo'larkan, «qariganda» zaharli bo'ladi.

Shuningdek, shahar ichkarisidagi xiyobonlardan, serharakat avtoyo'llar atrofidan terilgan qo'ziqorinlarni ham yeb bo'lmaydi, ularga mashinalardan chiqqan zaharli moddalar o'tirib qolgan.

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

1	4		7			12		17	
									21
		5			11	13			
				8			16	18	
	3				10				
				9		14			20
2							15	19	
			6						

1. Yerni o‘rab turgan tosh qobig‘i. 2. Xabarlar dasturi. 3. Peshonaga yozilgan. 4. Taxtani silliqlash asbobi. 5. O‘g‘il bolalar ismi. 6.Musiqa eshitish asbobi. 7. Uzun bo‘yli odam. 8. Soat. 9. Un chiqarish moslamasi. 10. Meva. 11. Ilon turi. 12. Shoir, yozuvchi. 13. Ilon turi. 14. O‘g‘il bolalar ismi. 15.Go‘zal qiz. 16. Minnatdorlik izhori. 17. Yomon odamga nisbatan ishlatiladigan so‘z. 18. So‘zlovchi. 19. Taxtani silliqlaganda chiqadigan kukun. 20. Non turi. 21. Marhum futbolchi.

Tuzuvchi: Orzigul O‘TANOVA, Surxondaryo viloyati, Muzrobod tumanidagi 14-o‘rta maktabning 5- «A» sinf o‘quvchisi.

индекс 198

БАРЧА ОТА-ОНАЛАР АИҚҚАТИГА!

БОЛАНГИЗ ГАЗЕТА ЎҚИЙДИМИ?

ТОНГ ЮЛДУЗИ

Ҳар ҳафта почтачи амаки фарзандингиз номини айтиб, унга газета олиб келадими? Бир вақтлар ўзингиз, ота-онангиз, бобо-бувиларингиз ўқиган газетани наҳотки болангиз ўқимаётган бўлса?!.

Азиз ота-оналар! Болалигингизда ўз газетангизни қанчалар орзиқиб кутардингиз-а? Қаттиққўл устозларингиз мактаб эшиги олдида туриб, обунага пул келтирдингми?деб сўрашгани ҳам ёдингиздадир?.. Энди, ҳамма нарса эркин. Аммо болаларга дарсингни қил,-деб дакки бермасак, ҳаммалари ҳам осонгина дарс қилиш учун ўтиришмайди.

Шундай экан, болалар маънавиятини бойитадиган, уларга мамлакат сиёсати - тинчлик ва инсонпарварлик ғоясидан сабоқ берадиган «Тонг юлдузи»ни ҳар бир бола ўқиши шарт.

Чунки, “Тонг юлдузи” Республика болалари ва ўсмирларининг ягона газетасидир!

ЎЗБЕКИСТОН БОЛАЛАРИ ★ ВА ★ ЎСМИРЛАРИНИНГ ГАЗЕТАСИ

TONG YULDUZI

O‘zbekiston bolalari va o‘smirlarining gazetasi

Muassislar: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO‘MITASI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG‘LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG‘ARMASI

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY’ATI: Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Qahramon QURONBOYEV, Feruza JALILOVA *(Bosh muharrir o‘rinbosari)*, Po‘lat MO‘MIN, Mukarrama MURODOVA, Tohir MULLABOYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod Dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo`limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi. Korxona manzili: “Buyuk Turon” ko‘chasi, 41. Buyurtma № Г-360 Gazetani Muhabbat MAXSUDOVA sahifaladi. Navbatchi: Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro‘yxatdan o‘tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34. 144-63-08